

MILLIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA YUTUQLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Avlakulov Aktam Mavlonkulovich,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi, PhD

Tel: 99899 828 85 15

E-mail: aktam.avlakulov@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuvning shiddat bilan rivojlanib borishi bugungi davrda texnogen sivilizatsiya jarayonlari rivojini ham tezlashtirib yubordi. Rivojlanib borayotgan texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan bahramand bo'lish, uni tashkil etishda dunyo mamlakatlari tajribalarini o'zlashtirish, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning barcha imkoniyatlari va yo'llarini izlab topish bugungi kunda endi rivojlanish yo'liga kirgan, yosh suveren mamlakatlar uchun o'ta muhim talabdir. Dunyo mamlakatlari, millatlar va xalqlar bugungi kundagi talablarni qondirishning yangi, zamonaviy usullarini o'ylab topishda tinmay izlanayotgan bir paytda, shunchaki, chetda tomoshabin bo'lib kuzatib turish hech qanday foyda bermaydi. Shunday ekan, har bir millat, xalq va mamlakat davrning talabi bilan yashashi, kishilar hayoti bilan hamnafas bo'lishi, o'zlarining orzu-intilishlari amalga oshishi uchun sharoit hozirlashi, barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishi zarur.

Kalit so'zlar: globallashuv, sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, texnogen ong, intellektual salohiyat, milliy taraqqiyot, shaxs axloqi.

Kirish. Bugun rivojlangan mamlakatlarda olimlar va kashfiyotchilar tomonidan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, amaliyotga joriy qilish ustida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotgan ekan, bizning yurtimizda ham bu yo'nalishdagi harakatlarni jadallashtirish, izlanishlar olib borish, intellektual imkoniyatlardan samarali foydalanish, yosh kashfiyotchilarni yanada qo'llab-quvvatlash, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish kerakligiga alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, – «Endigi vazifa – nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratishdan iborat» [10; 236]. Shunday ekan, chuqur o'ylangan bu oliyanob maqsadni amalga oshirishning mexanizmlarini ishlab chiqish, dunyo tajribasini o'rganish va amaliyotda uni moddiy kuchga aylantirish kechiktirib bo'lmas ish hisoblanadi. «...avvalo, biz uchun ... eng ustuvor vazifa – tarkibiy o'zgarishlar siyosatini olib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish hisobidan iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashdan iboratdir» [8; 45-46].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolada ko'tarilgan masalaga S.Otamuratovning “Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari)” kitobida «Aslida, bugun taraqqiyot yo'lidan borayotgan yoki kam taraqqiy qilgan mamlakatlar o'zlarining bor imkoniyatidan, fan, texnika va texnologiyalari

resurslaridan foydalangan holda o‘zlarining iqtisodiyotlarini rivojlantirish yo‘lidan bormoqdalar» [11; 135] – deya ta’kidlanadi.

Texnogen sivilizatsiya sharoitida kashfiyotlar qilish, ishlanmalardan foydalanish mamlakatimiz bosh qomusi – Konstitutsiyamizning 53-moddasida – “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi” [1] – deb belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarining turli-tumanligi mamlakatlar rivoji va ijtimoiy hayot tarzining turli xil bo‘lishiga ham olib keldi. Texnogen sivilizatsiyaning jadallik bilan rivojlanishi «uchinchi dunyo» mamlakatlari qashshoqlashuvining tezligi bilan yonma-yon ro‘y bermoqda. Bir tomonda taraqqiyotga erishgan, iqtisodiy farovonlik juda yuqori mamlakatlar, ikkinchi tomonda texnika va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmagan, o‘ta qashshoq davlatlar va ularda yashayotgan, ocharchilik va tashnalik bilan kurashayotgan kambag‘al qatlam vakillari. Bu dunyo miqyosidagi katta tengsizlikning paydo bo‘lishiga olib kelgan bugungi omildir. «Aslida, bugun taraqqiyot yo‘lidan borayotgan yoki kam taraqqiy qilgan mamlakatlar o‘zlarining bor imkoniyatidan, fan, texnika va texnologiyalari resurslaridan foydalangan holda o‘zlarining iqtisodiyotlarini rivojlantirish yo‘lidan bormoqdalar» [11; 135]. Ammo, iqtisodiy rivojlanmagan davlatlar bunday imkoniyatdan bebahra yashamoqdalar. Odamlar ochlik va toza ichimlik suvi, qurg‘oqchilik, global isish kabi muammolarga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan umumbashariy muammolar girdobida yashamoqda. 2024-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, dunyoda 883 milliondan ortiq odamlar ochlikdan azob chekmoqda (dunyo bo‘yicha ortiqcha vazndan aziyat chekayotganlar soni 1 mlrd 770 milliondan ortiq bo‘lsa, 2024-yil boshidan buyon 21,5 mln.ga yaqin kishi ochilikdan vafot etmoqda va bu raqamlar doim o‘sib brayotir) [12]. «Ocharchilik azobini ko‘rib yashayotganlarning eng ko‘p qismi Osiyoda (381 million, jami aholining 8,3 foizi), ikkinchi o‘rin Afrika (250 million kishi, aholining 19,1 foizi), uchinchi o‘rinni Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari egallab turibdi (48 million kishi yoki aholining 7,4 foizi). Achinarlisi, dunyoda ocharchilik muammosi keskin bo‘lib turgan bir paytda, har sakkizinchi odam semizlikdan aziyat chekmoqda» [6]. Bunday xilma-xil manzara bugungi zamonaviy, texnika va texnologiyalar o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga chiqqan davr – XXI asr – Texnogen sivilizatsiya davrida ro‘y berayotganligi juda achinarli holatdir. Buning o‘ziga xos ayanchli tomoni shundaki, mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut kun sayin kattalishib, oldini olish imkoniyati pasayib bormoqda.

Texnika va texnologiya sohasidagi ishlanmalarning samaradorligi oshib borayotganligini bir misol bilan ko‘rib chiqamiz. «2014-yil «Gazprom»ning 459 ming

xodimi kompaniyaga 3,5 mlrd AQSH dollariga teng sof daromad keltirgan. Apple kompaniyasining 80 mingdan ortiq dizayner, dasturchi va ofis xodimlari esa o‘z egalariga 39,5 mlrd AQSH dollariga teng sof foyda olishiga sabab bo‘lgan. Har bir xodimga shu pullarni taqsimlaydigan bo‘lsak, «Apple» xodimlarining har qaysisiga 493750 AQSH dollaridan, «Gazprom» xodimlariga esa 7625 AQSH dollaridan to‘g‘ri keladi. Demak, aqlni ishlatadigan xodim yer qa‘ridan boylik qazib olish bilan shug‘ullanadigan odamdan 65 marta ko‘p pul topar ekan» [7; 310]. Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy texnika va texnologiya vositalarini ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyotining eng asosiy va yetakchi tarmoqlaridan biridir. Vaqt o‘tgani sayin insonlarning yangi texnika vositalariga bo‘lgan talabi ham doimiy ravishda oshib boraveradi. Talab oshgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uni ishlab chiqaruvchilarning daromadini ham doimiy oshib borishini ta‘minlaydi. «Amerika korporatsiyasi («Apple» kompaniyasi)ning aylanma pulga nisbatan sof daromadi 21,1 foizni tashkil qiladi. Gaz giganti («Gazprom»)da esa bu raqam 3,4 foizdan iborat» [7; 311]. Ko‘rinib turganidek, texnika vositalarini ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar doimiy ravishda oshib bormoqda. Shuning uchun har bir mamlakat texnika va texnologiyani rivojlantirish omillarini izlab topishi, sharoitlarni yaratishi va amaliyotga joriy qilishni davlat siyosati darajasidagi kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylantirmog‘i zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, «Bugun yaxshi niyatlar bilan juda katta marralarni o‘zimizga belgilab olmoqdamiz. ... Yo‘limizda katta g‘ov bo‘lib turgan to‘siqlarni yengib o‘tish uchun boshlagan islohotlarimizni og‘ishmasdan davom ettiramiz. ... Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O‘zbekiston ham – kechagi O‘zbekiston emas» [10; 21]. Bugungi kundagi amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita O‘zbekistonda texnika va texnologiyani rivojlantirishga ham yo‘naltirilganligi bilan muhim bo‘lsa, mamlakatimiz istiqboli va yorqin kelajagini texnika va texnologiyalar orqali ta‘minlashga intilish yana bir jihatdan ahamiyatga egadir.

Bizning nazarimizda mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyani shakllantirish imkoniyatlari sifatida quyidagilarni keltirish muhim:

birinchidan, jamiyatning milliy intellektual salohiyati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy taraqqiyotning eng muhim omili sifatida qaralishi. Chunki, “yuqori intellektual salohiyatli insonlar o‘zlaridagi imkoniyatlardan samarali foydalanishga harakat qiladilar. Shuning uchun jamiyatda o‘zgarish, rivojlanish va taraqqiyot kabi jarayonlar ro‘y beradi” [4]. Kishilardan talab qilinadigani o‘zlarining Vatan taraqqiyoti yo‘lidagi mas‘uliyatlarini his etishlari va shundan kelib chiqib harakatda bo‘lishlaridir;

ikkinchidan, mamlakat fuqarolari tarkibida yoshlar sonining ko‘pligi. Yoshlar har qanday mamlakatning ertangi kuni, istiqbol egalari sifatida ardoqlanadi. Yoshlar qanchalik bilimli, bugungi kunning talablariga javob bera oladigan bo‘lsa, kelajakdagi barcha rejalar amalga oshadi.

«Navbatdagi muhim vazifamiz – mana shunday farzandlarimiz orasidan yangi avlod Xorazmiy va Farg‘oniyalarini, Beruniy va Ibn Sinolarini, Ulug‘beklar va Navoiylarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat» [10; 253]. Bugun mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida izchil islohotlar davom etayotir. «...Yoshlarning iste‘dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qolaveradi» [10; 262-263];

uchinchidan, millatning moddiy va ma‘naviy meroslarga boyligi. Uzoq o‘tmishdan saqlanib kelayotgan ma‘naviy meroslar ilm-fan yo‘lidagi katta-katta kashfiyotlarning asosi sanaladi. Ma‘naviy meroslarni o‘rganish, ularni zamonaviy ilm-fan yo‘lida safarbar qilish, albatta, foydalidir. Shuning uchun ham ulkan ma‘naviy meroslarni o‘rganish bugungi kun uchun dolzarbdir;

to‘rtinchidan, milliy urf-odat, an‘ana va marosimlarni saqlab qolish davlatning muhim siyosati darajasiga ko‘tarilganligi. Globallashuv sharoitida milliylikka, milliy mentalitetga, milliy o‘ziga xosligimizga qarshi bir qancha g‘oyaviy, mafkuraviy tahdidlar, «ommaviy madaniyat» namunalari OAV, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va boshqa manbalar orqali millatimiz, ayniqsa yoshlarimiz hayotiga kirib kelmoqda. Ana shunday ta‘sirlardan himoyalani uchun ham milliy urf-odat, an‘ana va marosimlarga befarq bo‘lmaslik, ularning sofligini ta‘minlash, kelajak avlodlarga yetkazib berishda e‘tiborliroq bo‘lish lozim.

Turli begona, yovuz, vayronkor g‘oya va mafkuralardan har qanday insonni himoya qiladigan katta kuch sifatida ham moddiy-ma‘naviy meroslar ahamiyatlidir. Milliy madaniy merosni sof holatda saqlash, ularni keyingi avlodlarga yetkazishda adolatli munosabatda bo‘lish uchun ham insonlarda milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy o‘zlikni anglash kabi his-tuyg‘ular bo‘lishi zarur. Ana shu tuyg‘ularni o‘zida chinakam his qila olgan odamlar, millat vakillari, yoshlar istiqboldagi rejalarni amalga oshiradigan, texnogen sivilizatsiyani rivojlantirishda munosib hissasini qo‘sha oladigan haqiqiy inson bo‘la oladi. «Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. ...Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. ...Buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to‘la asosimiz bor» [10; 225]. Bugun biz oldimizga qo‘ygan «Uchinchi renessans» oldingi, an‘anaviy renessanslar (IX–XII asr hamda XIV–XVI asrlar)dan o‘zining zamonaviyligi bilan farqlanadi. zamonaviy uyg‘onish bosqichining asoslarini zamonaviy texnika va texnologiya vositalari tashkil qiladi. Shunday ekan, texnogen sivilizatsiya asoslarini mustahkamlash, taraqqiy ettirish zamonaviy fikrga, dunyoqarashga ega bo‘lgan fuqarolar orqali amalga oshiriladi;

beshinchidan, milliy ta’lim tizimini shakllantirish va uni isloh qilish borasidagi ishlarning jadalligi va yoshlarda zamonaviy bilim (IT-ta’lim, dasturlash, robototexnikaga oid bilimlar) olishga intilish va qiziqishning yuqoriligi. «Sun’iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borayotgan yosh olimlarni qisqa muddatli xorijiy ilmiy stajirovkalarga yuborish bo’yicha «El-yurt umidi» jamg’armasi mablag’lari hisobidan 30 ta kvota ajratildi hamda tanlov asosida g’oliblar AQSH, Rossiya, Hindiston va Buyuk Britaniyadagi yetakchi xorijiy universitetlarga o’qishga yuborildi» [13];

oltinchidan, yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishda dunyoning ilg’or davlatlari bilan mustahkam hamkorlikning yo’lga qo’yilganligi. Hozirgi kunda ko’plab texnika va texnologiyaga oid yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 24-martda Toshkent xalqaro investitsiya forumida «Bugungi kunda yoshlarni AKT sohasiga keng jalb etishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. 2000-yillarda O’zbekistonda yuzga yaqin IT-mutaxassis bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda bu ko’rsatkich 50 mingga yetdi. 2030-yilga borib ularning sonini bir million kishiga yetkazish bo’yicha keng ko’lamli vazifa qo’yilgan» [5] ligi ta’kidlandi;

yettinchidan, barcha sohalarni raqamlashtirish va IT-texnologiyalar bilan ta’minlash jarayonlarining jadal yo’lga qo’yilayotganligi. Bu borada «Raqamli O’zbekiston – 2030» strategiyasi asosida hududlarda Davlat xizmatlari markazlari tashkil qilinib, ko’plab xizmat turlarini amalga oshirish joriy qilingan.

«Bugun dunyo to’rtinchi sanoat inqilobi ostonasida turibdi. Shuni hisobga olib, respublikada «Sanoat 4.0» rivojlantirish bosqichiga o’tish bo’yicha keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamlashtirish o’sishning yangi dvigatelini topish va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun misli ko’rilmagan imkoniyat yaratadi. Shu maqsadda hududlar va tarmoqlarni raqamli rivojlantirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan «Raqamli O’zbekiston – 2030» strategiyasi qabul qilindi» [5].

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz milliy taraqqiyotini ta’minlash yo’lida texnika va texnologiyani rivojlantirish uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirish, albatta, ijobiy natijalarni beradi. Bizning nazarimizda yana bir qancha amaliy choralarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish oldimizdagi vazifalarni to’liq va samarali amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Buning uchun:

birinchidan, axborot texnologiyalari (IT – Information technology), sun’iy intellekt (AI - Artificial intelligence)ni ishlab chiqarish uchun uzoq yillarga mo’ljallangan strategik dasturlar yoki «Yo’l xaritasi» ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ishlab chiqilgan yo’l xaritasida vazifalar aniq qilib belgilab, amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish uchun hukumat qoshida nazorat idorasini shakllantirish zarur. Masalan, Hindiston innovatsion rivojlanishni tashkil qilish uchun uch bosqichga asoslangan Milliy Innovatsion tizim (MIT)ni, Singapur to’rt bosqichli

(IV bosqich – yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga va ilmiy tadqiqotlarga o‘tish fazasi (1990-yillar oxiridan)) innovatsion milliy tizimni ishlab chiqdi va ulkan ijobiy natijalarga erishdi;

ikkinchidan, texnika va texnologiyalar sohasidagi har qanday ilmiy ishlanmalarni davlat yoki davlatning vakolatli organlari hamda xususiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham moddiy, ham ma’naviy muntazam qo‘llab-quvvatlashni tashkil qilish to‘g‘ri bo‘ladi;

uchinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda texnika va texnologiya sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarni berishga mo‘ljallangan – IT park, IT kurslar, shu yo‘nalishdagi IT-texnologiya o‘quv markazlari, texnoparklar faoliyatining jadallashib borayotganligi kishilarda texnogen ongni rivojlantirish xohish-istaklari, ehtiyoj hamda talablarining kuchayib borayotganligini ko‘rsatadi [3]. Bu esa shubhasiz, mamlakatimiz milliy taraqqiyotiga xizmat qiladigan istiqbolli harakatlardan hisoblanadi.

«O‘zbekistonning yangi siyosatida «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan bu yorug‘ olamning mangu haqiqati, fusunkor falsafasi mujassam tamoyil ustuvorlik qilmoqda. Odamlar davlat idoralari uchun emas, davlat idoralari odamlar uchun ishlashi kerak, degan da’vat jamiyat a’zolarining qon tomirlariga yangicha kuch-quvvat, jo‘shqinlik baxsh etdi» [9].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, amalga oshirilayotgan ishlar, belgilangan maqsadlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda texnogen sivilizatsiyani shakllantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Raqamli texnologiyalardan sohalarda foydalanishning huquqiy asoslari ham shakllantirilmoqda. Bu jarayonda samarali natijaga erishish uchun yoshlarning iste’dod va qobiliyatlarini namoyon qilishlariga ko‘maklashish, taraqqiy etgan mamlakatlarning rivojlanish yo‘llarini o‘rganish va rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishga intilish zarurligini fuqarolarning istaklariga aylantirish, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarish, Vatan istiqbolini buyuk qilish yo‘lidagi intilishni oshirish, fuqarolarda bor kuch va salohiyatlarini ishga solib harakat qiladigan, zamonaviy tafakkurni shakllantirish lozim.

Demak, dunyoda texnika va texnologiyalar murakkab ahamiyat kasb etib borar ekan, mamlakatimizda uning imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanishda mavjud imkoniyatlarni ishga solishimiz muhimligini ko‘rsatmoqda. Barcha sohalar kelajagi texnika va texnologiyalarga bog‘liq ekan, bu yo‘ldan aslo ortga qaytmaslik bugungi kundagi eng muhim masala sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr.
3. Avlakulov, A. M. (2023). Evolution of Views on “Technogenic Civilization”. International Journal of Social Science Research and Review, 6(1), 441-446.
4. Avlakulov, A. M. (2024). SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH–YANGI O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING ASOSI. Academic research in educational sciences, 5(TSUE Conference 1), 552-555.
5. IT kompaniyalar o‘z mintaqaviy ofislarini O‘zbekistonda ochishiga va xodimlarini relokatsiya qilishlariga barcha imkoniyatlar yaratiladi <https://mitc.uz/uz/news/view/3741> [20.05.2024]
6. Rahimov S. Pandemiya va ocharchilik. O‘zA. https://uza.uz/uz/posts/pandemiya-va-ocharchilik_251257 [01.12.2024]
7. Абу Муслим. Янги дунё. – Тошкент: QAQNUS MEDIA, 2017. – 372 б.
8. Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 302 б.
9. Мелибоев А. Сингапур: учинчи дунёдан биринчи дунёга // «Adolat» ижтимоий-сиёсий газетаси. Тошкент. – 2020, – №5.
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 б.
11. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти (сиёсий-фалсафий қирралари) – Тошкент: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 347 б.
12. <https://aniq.uz/statistika/dunyo> [01.12.2024]
13. <https://kun.uz/news/2021/11/24/sherzod-shermatov-suniy-intellekt-bilan-hozir-shugullanmasak-ertaga-kech-bolishi-mumkin> [01.12.2024]